



COGNITIVE MECHANISM BLENDING IN THE METAPHORICAL USAGE OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH AN ANTHROPONYMIC COMPONENT

Umarjon Goyibov

Doctoral student (PhD)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

umar.goyibov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0006-6941-0106>

<https://doi.org/10.36078/1778830627>

Abstract. A phraseological unit is a stable word combination consisting of two or more word components that are applied in a transferred meaning to varying degrees, have the opportunity to figuratively describe sensory processes and reality, and reflect the activity of a person in different spheres to some extent. The development of modern linguistic trends, especially cultural linguistics and cognitive linguistics, necessitates the study of phraseological units in linguoculturological and linguocognitive aspects. In these areas, the onomastic component layer of the phraseological system is of particular importance, as it clearly reflects the encyclopedic information inherent in a particular people and reflects national and cultural characteristics. In the human memory, this encyclopedic information is stored in the cognitive structure of a conceptual system, forming phraseological units that have a new associative meaning and the ability to be used metaphorically at different levels. This article aims to conduct a blending analysis in the theory of conceptual integration, one of the cognitive mechanisms of which is actively involved in the metaphorical application of phraseological units with an anthroponymic component in English and Uzbek languages, belonging to the subsystem of phraseological units with onomastic components. It has become clear that the blending analysis of phraseological units with anthroponymic components with transferred meanings in English and Uzbek has not been sufficiently studied in the theory of conceptual integration. Based on this, this article recognizes the existence of specific features of the metaphorical usage of phraseological units with an anthroponymic component under a common conceptual framework in the languages in comparison.

Keywords: anthroponymic component; phraseological unit; encyclopaedic information; conceptual integration; conceptual system; cognitive mechanism; mental space.

**ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR
METAFORIK QO‘LLANISHINING BLENDING KOGNITIV MEXANIZMI**

Umarjon Alisher o‘g‘li G‘oyibov

*Doktorant (PhD)**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

Annotatsiya. Frazeologik birlik — bu turli darajadagi ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan, hissiyot jarayonlari va voqelikni obrazli tasvirlash imkoniga ega bo‘lgan, muayyan darajada insonning turli-tuman sohalardagi faoliyatini o‘zida aks ettiradigan ikki yoki undan ortiq so‘z komponentlaridan iborat turg‘un so‘z birikmalaridir. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarining, ayniqsa, madaniy tilshunoslik va kognitiv tilshunoslik sohalarining rivoji frazeologik birliklarning lingvokulturologik va lingvokognitiv aspektlarda tadqiqot olib borilishini taqozo etadi. Mazkur yo‘nalishlarda esa frazeologik tizimning onomastik komponentli qatlami alohida ahamiyatga ega, chunki ularda muayyan xalqqa xos qomusiy axborot yaqqol ko‘zga tashlanib turadi hamda milliy-madaniy xususiyatlar aks etadi. Kishi xotirasida mazkur qomusiy axborot konseptual tizim kognitiv tuzilmasi ko‘rinishida saqlanib, yangicha assotsiativ ma’noga hamda turli darajadagi metaforik qo‘llanilish imkoniga ega bo‘lgan frazeologik birliklarni shakllantiradi. Mazkur maqolaning maqsadi onomastik komponentli frazeologik birliklar subtizimiga kiruvchi ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning borliq hodisalariga metaforik qo‘llanilishida faol ishtirok etuvchi kognitiv mexanizmlaridan biri sanalmish konseptual integratsiya nazariyasidagi blending tahlilini amalga oshirishdan iborat. Shunisi ayon bo‘ldiki, ingliz va o‘zbek tillarida ma’nosi ko‘chimga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptual integratsiya nazariyasidagi blending tahlili yetarlicha o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada chog‘ishtirilayotgan tillarda bir umumiy konseptga mansub antroponimik komponentli frazeologik birliklarning borliq hodisalariga metaforik qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: antroponimik komponent; frazeologik birlik; ensiklopedik axborot; konseptual integratsiya; konseptual tizim; kognitiv mexanizm; mental maydon.

Kirish

Ingliz va o‘zbek tillarida tarkibida antroponim ishtirok etgan frazeologik birliklarning kishi ongida ingliz va o‘zbek xalqiga oid muayyan ensiklopedik axborotni faollashtirishdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega

bo‘lib, mazkur axborot kishining konseptual tizimidan joy oladi. Frazologik birliklar tarkibidan joy olgan antroponimlar to‘g‘risidagi konseptual tizim tabiatan metaforik xususiyatga ega bo‘lib, mazkur antroponimlarga xos belgi-xususiyatlarning o‘xshashlik, umumiylik vositasida muayyan kishilarga, predmetlarga, ish-harakatlarga, joy-makonga, zamonga hamda mavhum tushunchalarga metaforik qo‘llanadi. Kishi xotirasida o‘zi egallagan bilim va tajribalari asosida muayyan konseptlarni borliq hodisalariga metaforik qo‘llashning konseptual metafora, analogiya, konseptual integratsiya, konseptual metonimiya singari kognitiv mexanizmlari mavjud.

Kognitiv tilshunoslikda til birliklarining ma‘nosi ko‘chishi haqida so‘z yuritilganda asosan konseptual metafora hamda konseptual integratsiya singari kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etadi. Ular o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, lisoniy birliklarning ma‘no ko‘chishi jarayoni uchun konseptual metaforada maqsad va manba maydonlari singari ikkita konseptual maydon faollashsa, konseptual integratsiyada umumiy mental maydon, hakmor mental maydonlar, qorishiq mental maydon singari to‘rt va undan ortiq konseptual maydonlar ishtirok etadi. Garchi mazkur kognitiv mexanizmlar o‘z tarkibidagi konseptual maydonlarning miqdori bilan farqlansa-da, ular bir-birini to‘ldiradi, bir-birini oydinlashtiradi, chunki metafora konseptual integratsiya tarmog‘ining markazida turib, uni muayyan mental maydonlar bilan ta‘minlab beradi.

Kognitiv tilshunoslikda konseptual integratsiya inson bilish faoliyatining asosiy jarayonlaridan biri bo‘lib, analogiya bilan bog‘liq mental jarayon asosida muayyan ensiklopedik ma‘lumot konseptuallashtiriladi hamda o‘zi egallagan bilim bir konseptual maydondan ikkinchi konseptual maydonga ko‘chib yangi ma‘noga ega bo‘lgan lisoniy birliklarni yaratadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar shular jumlasidan bo‘lib, antroponimlar ham insonga nisbatan, ham borliq hodisalariga nisbatan metaforik qo‘llaniladi, chunki mazkur antroponimlar, ya‘ni kishining atoqli ismlariga ega insonlarga xos belgi-xususiyatlar umumiylik, o‘xshashlik asosida boshqa insonlarga yoki borliq hodisalariga ko‘chadi.

Metodlar

Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik tizimida ishtirok etgan antroponimlarning kelib chiqish manbalarini tavsiflash maqsadida etimologik tahlil qo‘llaniladi. Bunda mazkur frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlar tarixiy voqeliklarda ishtirok etgan tarixiy shaxslar, diniy rivoyatlarda tilga olingan diniy obrazlar va payg‘ambarlar, badiiy adabiyot olamida tasvirlangan badiiy obrazlar, xalq og‘zaki ijodi durdonalari va afsonalarida kuylangan qahramonlar hamda ingliz va o‘zbek xalqlarida tez-tez uchraydigan ismlardan kelib chiqqanligi voqelanadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarning ma‘naviy xususiyatlarini tavsiflash maqsadida semantik tahlildan foydalaniladi. Buning vositasida mazkur frazeologik birliklarning ma‘nosi o‘z tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga xos belgi-xususiyatlar bilan bevosita yoki bilvosita assotsiatsiyaga kirishganligi anglashiladi.

Tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishidagi ustuvor metodlaridan biri konseptual tahlil yordamida chog‘ishtirilayotgan tillarda frazeologik birliklar tarkibidan joy olgan antroponimlarga xos belgi-xususiyatlar yordamida qanday konseptlarni shakllantirishi aniqlanadi. Buning asosida antroponimlar to‘g‘risidagi konseptosferasidan INSON, PREDMET, ISH-HARAKAT, MAKON, ZAMON hamda ABSTRAKSIYA singari konseptlar ajratib olinadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklar shakllanishining faol kognitiv mexanizmlaridan biri sanalmish konseptual integratsiya yordamida kishi xotirasida qanday konseptual maydonlar faollashishi aniqlanadi. Bunda frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga xos belgi-xususiyatlar umumiylik, o‘xshashlik asosida kishining xotirasidan joy olgan konseptual tizimni metaforik tasvirlash mexanizmlari tavsiflanadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklar shakllanishining hamda metaforik qo‘llanilishining konseptual integratsiya kognitiv mexanizmidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarini tavsiflash maqsadida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlildan umumli foydalanildi. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklarning farqli jihatleri o‘xshash jihatlariga qaraganda ko‘p bo‘lishi tabiiy ekanligi voqelanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar shakllanishining konseptual integratsiya kognitiv

mexanizmidagi farqli jihatlarning mavjudligi har ikkala tilni bir-biridan ajratib turadi, lekin shunga qaramay o'xshash jihatlarning mavjudligi har ikkala xalqni birlashtirib turuvchi mushtarak tomonlari borligidan darak beradi.

Natijalar

Olamning konseptual manzarasini lisoniy voqelantirishda, muayyan konseptlarni til orqali verballashtirishda, inson xotirasida to'plangan bilim zaxirasini aks ettirishda hamda obyektiv borliqdagi belgi-xususiyatlarni konseptuallashtirishda frazeologik birliklarning o'rni beqiyos bo'lib, bevosita mazkur frazeologik birliklar shakllanishining kognitiv mexanizmlarini o'rganishni zaruriyatga aylantiradi. Bu borada tadqiqotchilar frazeologik birliklarning tarkibidagi komponentlardan kelib chiqqan holda turlicha shakllanish mexanizmlarini taklif qilishadi. Masalan, Z. Kovekses va P. Szabko kabi olimlar o'z tadqiqot ishida frazeologik birliklarning motivlashganlik darajasidan kelib chiqqan holda bilim zaxirasini figurativ frazeologik ma'nolarga tutashtiruvchi *konseptual metafora*, *konseptual metonimiya* va *umume'tirof etilgan bilimlar zaxirasi* singari kognitiv mexanizmlarini qayd etib o'tadi [Kovekses & Szabko 1996: 330]. O. V. Sherban frazeologik birliklarning semantik derivatsiyasi uchun e'tiborga molik kognitiv mexanizmlar sifatida *sxematizatsiya*, *konseptual metafora*, *konseptual metonimiya*, *fokusirovka* va *defokusirovka*, *perspektivizatsiya*, *simvolizatsiya* va *konseptual integratsiya* kabilarni ilgari suradi [Sherban 2024: 9-11]. Ingliz tilida gul komponentli frazeologik birliklarning kognitiv aspektini tadqiq qilgan Y. V. Shevchenko mazkur frazeologik birliklarning shakllanishida *konseptual metafora*, *konseptual metonimiya*, *konseptual integratsiya* hamda *freym* singari kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etishini ta'kidlab o'tadi [Shevchenko 2007: 2-3]. A. G. Yuldashev esa idiomatik qo'shma so'zlarning shakllanishida *konseptual metafora*, *konseptual metonimiya*, *metaftonimiya* hamda *konseptual integratsiya* singari kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etishini ko'rsatib beradi [Yuldashev 2017].

Yuqorida qayd etib o'tilgan kognitiv mexanizmlarning asosini konseptlar tashkil qiladi, chunki konsept inson xotirasidagi bilim zaxirasini aks ettiruvchi alohida mental tuzilmani hosil qiladi, mazkur mental tuzilmalar yordamida esa frazeologik birliklar shakllanishining kognitiv mexanizmlarini amalga oshirishimiz mumkin. Frazeologik birliklarning

muayyan konseptlarni hosil qilish jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini A. V. Tuarmenskaya o'z tadqiqot ishida ko'rsatib bergan [Tuarmenskaya 2006: 21]. Unga ko'ra, konseptuallashtirishning **kompozitsiya** deb nomlangan birinchi bosqichida frazeologik birlik tarkibidagi alohida so'z komponentlarning semantikasi sharhlanadi, **integratsiya** deb atalmish ikkinchi bosqichida mazkur so'z komponentlarning birlashuvi hamda alohida mental maydonlarning integrallashuvi amalga oshadi, **metaforizatsiya** deb nomlangan so'nggi bosqichida esa integrallashuv natijasida yuzaga kelgan ma'noning metaforik tabiati ochib beriladi. Masalan, *give somebody a leg up* frazeologik birligining uch bosqichli konseptuallashtirish jarayoni quyidagicha:

1) **kompozitsiya** bosqichi. *Give somebody a leg up* frazeologik birligi tarkibidagi *give* — qo'l uzatmoq, *somebody* — birov, *a leg* — oyoq, *up* — tepaga singari so'zlardan birovning oyog'iga qo'l uzatib, uni tepaga ko'tarish ma'nosini tushunishimiz mumkin;

2) **integratsiya** bosqichi. Qomusiy bilimimizga tayangan holda yuqoridagi ma'nodan biz ot ustiga chiqish axborotini ilg'ab olamiz hamda kishining birovga ot ustiga chiqishiga yordam berishi obrazini tasavvur qilamiz. Axborot va obraz mental maydonlari asosida mazkur frazeologik birlikning birovning ot ustiga chiqishi uchun uning oyog'iga qo'l uzatib, uni tepaga ko'tarish orqali yordam berish ma'nosini anglashimiz mumkin;


3) **metaforizatsiya** bosqichi. Mental tizimimizda shakllangan obrazga tayangan holda mazkur frazeologik birlikning birovning muvaffaqiyatga erishishi uchun unga yordam berish singari ko'chma ma'nosini tasavvur qilishimiz mumkin.

Mazkur maqolamizda esa bevosita tadqiqotimizning o'rganish obyekti hisoblanmish antroponimik komponentli frazeologik birliklar shakllanishining faol kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida *konseptual integratsiya* nazariyasidagi *blending* tahlilini ko'rib chiqamiz. Konseptual integratsiya turli konseptual maydonlarning o'z umumiy va o'xshash xususiyatlari asosida proyeksiyalashuvi, buning natijasida murakkab integrallashuv tarmog'ini hosil qiluvchi kognitiv mexanizm hisoblanadi [Sherban 2024: 10]. Mazkur integrallashuv tarmog'ida to'rt va undan ortiq mental maydonlar ishtirok etib, bir-biriga umuman aloqasi bo'lmagan ikki

hodisani aks ettiruvchi hamkor mental maydonlar, ularning umumiy va o'xshash xususiyatlarini birlashtiruvchi umumiy mental maydon hamda buning asosida yangi hosila ma'noga ega frazeologik birlik shakllanadigan qorishiq mental maydon singari konseptual maydonlarni qamrab oladi. M. Omazich *Love is Fire* (Muhabbat — bu olov) konseptual metafora asosida *to have the hots for someone* frazeologik birligining konseptual integrallashuv jarayonini quyidagicha izohlab beradi [Omazic 2005: 42]:

1- chizma

“Have the hots for someone” frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili



Izoh. M. Omazićning "Cognitive linguistic theories in phraseology" maqolasi asosida moslashtirilgan (2005, 42 b.).

Frazeologik birliklar ma'nosining shakllanishida uning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar asosiy rol o'ynaydi, chunki mazkur birliklarning ma'nosi antroponimlar to'g'risidagi ensiklopedik axborot bilan chambarchas bog'liq. Frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar inson ongida muayyan ensiklopedik bilimning faollashishi jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Antroponimlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirish bilan birgalikda ma'lum bir g'oya, assotsiatsiya va ensiklopedik ma'lumotni rag'batlantiruvchi murakkab konseptual strukturani ifoda etish

imkoniyatini beradi. Antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida informativ, ya'ni ma'lumot tashuvchi xususiyatga ega bo'lib, ular bevosita tilga oid bo'lmagan, nolingvistik omillarga bog'liq holda ma'lum bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi [Abdusamadov 2022: 84].

Muhokama


Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, konseptual integratsiya nazariyasida to'rt va undan ortiq konseptual maydonlar ishtirok etadi. Ushbu nazariyaning markazini konseptual integrallashuv tarmog'i tashkil etib, u kognitiv maydonlardan hosil bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ikki va undan ortiq hamkor mental maydonlardan tarkib topadi. Mazkur integrallashuv tarmog'i yangi hosila ma'nolarni modellashtirish uchun asos bo'lgan mexanizm sifatida e'tirof etiladi [Ashurova & Galiyeva 2018: 93].

Konseptual integratsiya nazariyasida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tahlili haqida so'z yuritganimizda maqsad va manba maydonlaridan tarkib topgan ikkita hamkor mental maydonlar, mazkur hamkor mental maydonlarning umumiy va o'xshash jihatlarini birlashtiruvchi umumiy mental maydon va buning natijasida yangi hosila ma'noga ega bo'lgan antroponimik komponentli frazeologik birliklar yuzaga keladigan qorishiq mental maydonlardan tashkil topgan konseptual integrallashuv tarmog'i nazarda tutiladi. Mazkur nazariya konseptual metafora nazariyasiga nisbatan murakkab kognitiv model sifatida qaralib, uning yordamida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning ko'chimga uchragan ma'nolarining kognitiv mexanizmi yanada oydinlashadi.

Masalan, INSON konseptining *xulq-atvor* kategoriyasiga mansub tarkibida badiiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *An Artful Dodger* frazeologik birligi kishining uddaburon tabiatini, puxtalik bilan ish tutadigan fazilatini tasvirlaydi: "*He is an Artful Dodger, that one. The police can never get any charges to stick to him*" [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.a].

2-chizma

"An Artful Dodger" — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili



Izoh. Muallif tomonidan tuzilgan¹.

Chizmadan ko‘rib turganimizdek, manba mental maydonida *Artful Dodger* antroponimining *olg‘ir kissavur, har qanday chigal vaziyatdan chiqib keta oladigan* va *uddaburon* singari xususiyatlari o‘rin olgan. Maqsad mental maydonida esa politsiya mo‘ljali kishining *har qanday jarimadan o‘zini olib qocha bilganligi* va *uddaburonligi* singari xususiyatlari aks etadi. *Vaziyatdan ustalik bilan foydalana oladigan, uddaburon va puxta* singari xususiyatlar mazkur hamkor mental maydonlarni birlashtiruvchi umumiy jihat sifatida umumiy mental maydondan o‘rin oladi va buning


¹ 2–15 rasmlar muallif tomonidan tuzilgan.

natijasida qorishiq mental maydonda hiylakor, uddaburon va puxtalik bilan ish tutuvchi inson yangi hosila ma'nosiga ega *An Artful Dodger* antroponimik komponentli frazeologik birligi shakllanadi.

INSON konseptining *xulq-atvor* kategoriyasiga mansub o'zbek xalq og'zaki ijodi asosida shakllangan o'zbek tilidagi *Zamona oxir bo'lsa, echkining oti — Abdukarim* frazeologik birligi bevosita kishining xudbin tabiatini, vaziyatdan o'z shaxsiy manfaati yo'lida foydalanadigan xislatini tavsirlaydi: “*Ham zararlikda shular qatoridan qolishmaydurg'on, faqat o'z shaxsiy rohati yo'lida elni emib, qayg'usiz, g'oyasiz, echkining oti Abdukarim bo'lib, yetmasa ig'vogarlik bilan kun kechiruvchi o'zining ba'zi stolparast, tanparast shaxslarimizdan kinoyadir*” [Qodiriy 1926].

3-chizma

“*Zamona oxir bo'lsa, echkining oti — Abdukarim*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Qorishiq mental maydon

Mazkur chizmadan ko‘rinib turibdiki, manba mental maydonida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tilga olingan Abdukarim qassobning *qo‘y go‘shriga echki go‘shriga qo‘shib odamlarga aldab sotgani, vaziyatdan o‘z manfaatini ko‘zlab foydalangani*, maqsad mental maydonida esa Abdulla Qodiriy tilga olgan hukumat xodimlarining *ig‘vogarlik bilan kun kechirgani, vaziyatdan faqat shaxsiy rohati yo‘lida foydalangani* singari xususiyatlar qayd etiladi. Mazkur xususiyatlar Abdukarim qassob va hukumat xodimlarini birlashtirib turuvchi jihatlar sifatida umumiy mental maydondan o‘rin oladi. Buning asosida esa qorishiq mental maydonda faqat o‘z shaxsiy manfaatini o‘ylab ish tutadigan kishi yangi hosila ma‘nosiga ega *Zamona oxir bo‘lsa, echkining oti — Abdukarim frazeologik birligi* shakllanishi voqelanadi.

PREDMET konseptining ***tadbir*** kategoriyasiga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *A Lucullean feast* frazeologik birligi xilma-xil taomlarga to‘la, dabdabali dasturxon bilan bezatilgan bazmni tasvirlaydi: “*She was never tired of hearing Victor describe the dinner at Mrs Pontellier’s. He exaggerated every detail, making it appear a veritable **Lucullean feast**. The flowers were in tubs... the champagne was quaffed from huge golden goblets*” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.e].

4-chizma

“*A Lucullean feast*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Mazkur chizmadan ayonki, maqsad mental maydonidan o‘rin olgan Pontelyer xonimning xonadonidagi muhtasham bazm *oltin qadahlar va gullar bilan bezalganligi* jihatidan manba mental maydonidan o‘rin olgan Lukulla podshoning *qimmatbaho idishlar bilan bezalgan* bazmiga qiyos qilingan. Pontelyer xonimning xonadonidagi bazm bilan Lukulla podshoning uyushtirgan bazmni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *bazm, oltin qadahlar va qimmatbaho idishlar* singari xususiyatlar aniqlanib, mo‘l-ko‘l dasturxon bilan bezalgan katta va muhtasham bazm yangi hosila ma‘nosiga ega *A Lucullean feast* frazeologik birligi shakllanishiga asos yaratadi.

PREDMET konseptining *tadbir* kategoriyasiga mansub o‘z tarkibida folklorik antroponim ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Bazmi Jamshid* frazeologik birligi ko‘rkam dasturxon bilan bezatilgan hashamatli bazmni

tasvirlaydi: “O‘ho‘, *bazmi Jamshid qizigan ekan-da, kulgilaringiz osmoni falakka ko‘tarilmoqda*” [Sulton 1971: 114].

5-chizma

“*Bazmi Jamshid*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Badiiy asardan olingan yuqoridagi parcha Husayn Boyqaro tilidan Majdiddinga qarata aytilgan bo‘lib, Majdiddin, Shayxulislom, Munajjim va boshqalar yig‘ilgan Sulton Husaynning ishratxonasida *tobora osmoni falakka ko‘tarilayotgan o‘yin-kulgi, may quyilgan oltin ko‘zalar, kumush piyolalar, noz-u ne‘matlar* muhayyo bo‘lgan bazm uyushtiriladi. Mazkur bazmning bunday xususiyatlari, chizmadan ko‘rib turganimizdek, maqsad mental maydonidan o‘rin olib, manba mental maydonidan o‘rin olgan afsonaviy podsho Jamshidning *dabdabali va shohona* bazmiga qiyos qilinadi. Sulton Husaynning bazmi bilan podsho Jamshidning bazmini

birlashtirib turadigan xususiyat sifatida *bazm*, *o‘yin-kulgi va dabdaba bilan o‘tkazilishi* sanalib, umumiy mental maydondan o‘rin oladi va buning natijasida bizning ongimizda ko‘rkam dasturxon bilan bezatilgan va maishatbozlik bilan o‘tkaziladigan bazm yangi hosila ma’nosiga ega *Bazmi Jamshid* frazeologik birligi shakllanadi.

ISH-HARAKAT konseptining *jismoniy ish-harakat* kategoriyasiga mansub tarkibida mifologik antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *Open a Pandora’s box* frazeologik birligi ko‘plab chigal muammolarni keltirib chiqaradigan xatti-harakatni tasvirlaydi: “*Her parents are understandably afraid of opening a Pandora’s box if they buy her a car*” [Merriam-Webster, n.d.].

6-chizma

“*Open a Pandora’s box*” – antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Chizmadan ma'lumki, manba mental maydonida *Pandora* antroponimining *qiziquvchanligi tutib balo-kulfat keltiruvchi idishni ochishi, mazkur idish tufayli turli muammolarni keltirib chiqarishi*, maqsad mental maydonida esa yuqoridagi misolda ishtirok etgan ota-onaning o'z *qiziga mashina*

sovg'a qilishi, qizning esa *mashina tufayli turli muammolarni keltirib chiqarishi* singari xususiyatlar o'rin oladi. Qizning xatti-harakati bilan Pandoraning xatti-harakatini birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *buyum orqali turli balo-kulfatlarni keltirib chiqarish* aniqlanib, bizning ongimizda ko'plab chigal muammolarni yuzaga keltiradigan xatti-harakat yangi hosila ma'nosiga ega *Open a Pandora's box* frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

ISH-HARAKAT konseptining *og'zaki ish-harakat* kategoriyasiga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan o'zbek tilidagi *Berdisini aytguncha urib o'ldirmoq* frazeologik birligi oxirini kutmasdan shoshib xulosa chiqaradigan xatti-harakatni tasvirlaydi: "*Berdisini aytguncha urib o'ldirma, yapon olimlari bu oqish-sarg'ish odamlarning tuki ham, har narsasi ham darmon bo'lishini topgan*" [Tojiyev 2022: 87].

7-chizma

"Berdisini aytguncha urib o'ldirmoq" — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Badiiy asardan olingan yuqoridagi parcha Nasrullo obrazi tomonidan Fozil obraziga qarata aytilgan bo‘lib, Fozilning *Nasrullo gapini oxirigacha eshitmasdan suhbat o‘rtasida savol berishi* Xudoyberdining *o‘z ismini to‘liq aytmaguncha uni kofirga chiqarib kaltaklanishiga* qiyos qilingan. Mazkur xatti-harakatlardan *oxirigacha eshitmay xulosa chiqarilishi, suhbat o‘rtasida gapning bo‘linishi* singari umumiy xususiyatlar ajratib olinib, gapirib bo‘lishlarini kutmay, chidamay bir narsa deyish bilan bog‘liq xatti-harakat yangi hosila ma’nosiga ega *Berdisini aytguncha urib o‘ldirmoq* frazeologik birligining shakllanishiga asos yaratadi.

MAKON konseptining **boylik** kategoriyasiga mansub tarkibida folklorik antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *An Aladdin’s cave* frazeologik birligi noyob va qimmatbaho buyumlar to‘plangan joyni tasvirlaydi: “*What would happen to the collections André had amassed over the decades and squirreled away in his homes in White Plains, N.Y., and Durham, N.C., an Aladdin’s cave of artifacts that represented a certain style of luxury in the second half of the 20th and early 21st century?*” [Dictionary.com, n.d.].

8-chizma

“*An Aladdin’s cave*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Qorishiq mental maydon

Chizmadan ayonki, manba mental maydonida Olovuddinning *Jafar tufayli g'orda qamalib qolishi*, mazkur g'orda esa *qimmatbaho buyumlar, oltin-u kumushlar to'planganligi*, maqsad mental maydonida esa Andreyning o'z uyida *mol-dunyo to'plashi*, mazkur mol-dunyo esa *artefaktlar, qimmatbaho va shohona buyumlardan iboratligi* singari xususiyatlar aks etadi. Andreyning boylikka to'la uyi bilan Olovuddinning oltin-u kumushga to'la g'orini birlashtirib turadigan umumiy jihat esa *boylik, qimmatbaho buyumlar* aniqlanib, qorishiq mental maydonda qimmatbaho buyumlarga to'la joy yangi hosila ma'nosiga ega *An Aladdin's cave* frazeologik birligi shakllanishi voqelanadi.

MAKON konseptining *boylik* kategoriyasiga mansub tarkibida tarixiy hamda folklorik antroponim ishtirok etgan o'zbek tilidagi *Mirzai azimda ming Xorunning xazinasi-yu, tuman Jamshidning davlati bor* frazeologik birligi bevosita Mirzacho'lining unumdor tuprog'ini tasvirlaydi.

9-chizma

“Mirzai azimda ming Xorunning xazinasi-yu tuman Jamshidning davlati bor” – antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Qorishiq mental maydon


Chizmadan ma'lumki, maqsad mental maydonidan o'rin olgan Mirzacho'l yerining xususiyatlari sifatida quruq yog'och ekilsa barakali va mo'l hosil berishi, shoti ekilsa arava unib chiqishi va tuprog'i unumdorligi kabilar ajratib olinadi, manba mental maydonidan o'rin olgan tarixiy va afsonaviy podshohlar Xorun va Jamshidlarning xususiyatlari sifatida esa bitmas-tuganmas xazinalarga egalik qilganligi, mo'l-ko'lchilik va unumdorlik ramzlari ekanligi kabilar aniqlanadi. Mirzacho'l hududi bilan Xorun va Jamshid podshohlarni birlashtirib turadigan umumiy jihat boylik, xazina va mo'l-ko'lchilik sanalib, buning asosida bizning ongimizda ulkan boylik va xazinaga ega barakali joy yangi hosila ma'nosiga ega *Mirzai azimda ming Xorunning xazinasi-yu tuman Jamshidning davlati bor* frazeologik birligi shakllanadi.

ZAMON konseptining *o'tmish* kategoriyasiga mansub tarkibida diniy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *As old as Methuselah* frazeologik birligi qadimgi zamonni tasvirlaydi: "*Why do not we ever sing new songs? Those hymns are as old as Methuselah*" [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.b].

10-chizma

"*As old as Methuselah*" — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili







Chizmadan ko‘rinib turibdiki, maqsad mental maydonidan joy olgan madhiyaning *zamondan orqada qolib ketganligi, eski davrlardan beri kuylanib kelganligi* manba mental maydonidan o‘rin olgan Mafusaylning *uzoq umr ko‘rganligi, qadim zamonlarda yashaganligiga* qiyos qilingan. Madhiya va Mafusaylni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *eski davr, qadim zamon, keksa* kabilar aniqlanib, buning asosida qadimiy, ko‘hna, ulug‘vor yoshda yangi hosila ma‘nosiga ega *As old as Methuselah* frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

ZAMON konseptining *o‘tmish* kategoriyasiga mansub tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Daqqiyunusdan qolgan* frazeologik birligi ham bevosita qadimgi zamoni tasvirleydi: “*Ko‘cha tomondan qaraganda ko‘rimsiz, Daqqiyunusdan qolgan o‘ymakor eshik g‘irchillab ochiladi*” [Mirmuhsin 2016: 4].

11-chizma

“*Daqqiyunusdan qolgan*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili






Qorishiq mental maydon


Mazkur chizmadan ayonki, maqsad mental maydonidan oʻrin olgan oʻymakor eshikning qadimgi zamonlardan qolganligi, gʻirchillaydigan darajada eskirib qolganligi manba mental maydonidan joy olgan Daqqiyunusning hukmronlik qilgan qadimgi zamonlarga qiyos qilingan. Oʻymakor eshik va Daqqiyunusni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida eski, qadimgi zamon kabilar aniqlanib, buning asosida almisoqdan qolgan, qadimiy, koʻhna yangi hosila maʼnosiga ega Daqqiyunusdan qolgan frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

ABSTRAKSIYA konseptining *salbiy* kategoriyasiga mansub tarkibida folklorik antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *A Barmecide feast* frazeologik birligi hech narsani ato qilmaydigan xayolot va quruq vaʼdani tasvirlaydi: “*The money you make on the stock market can end up as a Barmecide feast. You think you are making millions of dollars, and then in the blink of an eye it is all gone*” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.c].

12-chizma

“*A Barmecide feast*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili






Mazkur chizmadan ko‘rinib turganidek, maqsad mental maydonidan joy olgan savdo birjasidan olinajak daromadning *sarobga aylanishi*, savdo birjasining *hech qanday foyda keltirmasligi* manba mental maydonidan o‘rin olgan Barmesidning gadoyga *quruq va yolg‘ondakam bazmni taklif* qilganligi, bazmdagi dasturxon esa *bo‘m-bo‘sh idishlar* bilan to‘lganligiga qiyos qilingan. Savdo birjasi va Barmesidni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *sarob, quruq va yolg‘ondakam, bo‘m-bo‘sh, foydasiz* kabi xususiyatlar aniqlanib, buning asosida sirtidan qaraganda foyda keltiradigan lekin aslida hech narsa bermaydigan sarob, xayolot yangi hosila ma’nosiga ega *A Barmecide feast* frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

ABSTRAKSIYA konseptining *salbiy* kategoriyasiga mansub tarkibida tipik antroponim ishtirok etgan o‘zbek tilidagi *Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga* frazeologik birligi mehnat qilib topilgan boylikning kattalar tomonidan adolatsizlarcha o‘zlashtirilishini anglatadi: “*Ana, otayng minan onayng qo‘ltig‘imga paxta sop ketishdi. Rasiyga borip lo‘xtakiday pul ishlarmish... Ko‘cha tentirap gadoy bo‘p yurgandir... Yemastan-ichmastan o‘limlikka yiqqanlarimmi opketishti. Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga...*” [Ismoil 1954].

13-chizma

“*Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Badiiy asardan olingan yuqoridagi parcha Xachcha-bu kampir tilidan Zumradga qarata aytilgan bo‘lib, *yemasdan-ichmasdan yiqqanlarining sarobga aylanishi, oxirat uchun yiqqanlarini olib ketishlari* dehqonlarning tepasiga amlokdorlar kelib *xirmonini o‘zlashtirishlari, ularning sho‘rini quritib ketishlariga* qiyos qilingan. Mazkur Xachcha-bu kampir va dehqonlarni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *sarob, barakasiz, havoga uchgan boylik* kabi xususiyatlar aniqlanib, buning asosida dehqonlarning umumiy obrazini tipiklashtiruvchi *Hasan* antroponimi yordamida mehnat qilib to‘plangan boylikning havoga uchib ketishi, kattalar tomonidan o‘zlashtirilishi yangi hosila ma’nosiga ega *Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga* frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida tarkibida ikkita antroponim ishtirok etgan frazeologik birliklar mavjudki, boshqa obyektga nisbatan metaforik

qo'llanilishining konseptual integrallashuv tarmog'ida bevosita oltita mental maydonlar ishtirok etadi. Masalan, INSON konseptining *ijtimoiy munosabatlar* kategoriyasiga mansub tarkibida mifologik antroponimlar ishtirok etgan ingliz tilidagi *Damon and Pythias* frazeologik birligi bir-biriga sadoqatli ikki do'stlarni tasvirlaydi: “*Of course, Allie offered to serve Dina's punishment – those two are like Damon and Pythias*” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.d].

14-chizma

“*Damon and Pythias*” — antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili




Qorishiq mental maydon

Mazkur chizmadan ma'lumki, Eli o'z do'stining jazosini bo'yniga olishi, uni qo'llab-quvvatlashi jihatidan o'z do'stining o'rniga garovda ushlanib qolishga rozilik bergan Damonga, Dina esa o'z qilmishi uchun jazosini olishi jihatidan Pifiyga qiyos qilingan. Eli va Dina hamda Damon va Pifiy singari do'stlarni birlashtirib turadigan umumiy jihat sifatida *bir-birini qo'llab-quvvatlash, do'stini qutqarish, do'stining aybini bo'yniga olish, sadoqat* kabilar aniqlanib, buning asosida ikki sadoqatli do'st yangi hosila ma'nosiga ega *Damon and Pythias* frazeologik birligini shakllantirishimiz mumkin.

O'zbek tilida mug'ombir, hiylakor va yolg'onchi inson sifatida *Ali*, soddadil, beayb va rostgo'y inson sifatida *Vali* singari tipik antroponimlarni o'z ichiga olgan INSON konseptining *xulq-atvor* kategoriyasiga mansub *Alining alamini Validan oladigan* frazeologik birligi ham mavjud: "*Tarixchi hamkasbim Saltanat opa menga qarab so'z qotdi: – ... Sizga oylikning nima keragi bor ekan, — dedi u boshimdan oyog'imgacha razm solib. Bu ayolning Alining alamini Validan olish odati bor*" [Mamadaliyeva 2013: 40–43].

15-chizma

“Alining alamini Validan oladigan” – antroponimik komponentli frazeologik birligining konseptual integratsiya tahlili



Badiiy asardan olingan yuqoridagi parcha Saltanat opa tilidan muallif Ruxsora opaga qarata aytilgan bo'lib, mazkur chizmada aks etganidek, Saltanat opaning oylik tushmagani uchun Ruxsora opani *aybdordek muomala qilishi* Alining alamini Validan olishga qiyos qilingan. Bunda Ruxsora opaning *soddadilligi* Vali singari *soddadil, beayb, rostgo'y* kishilarni tipiklashtiruvchi obrazga qiyos qilinsa, hisobchining *oyliklarni kech yetkazgani uchun aybdor bo'lishiga qaramay o'zini olib qochishi* Ali singari *aybdor, mug'ombir, o'zini olib qochadigan* kishilarni tipiklashtiruvchi obrazga qiyos qilinadi. Mazkur parchadan anglashiladiki, Saltanat opaning oylik tushmagani uchun hisobchini ayblashdan ko'ra

beayb Ruxsora opadan alam olishi *Alining alamini Validan oladigan* odati borligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etib inson xotirasidagi konseptual tizimni metaforik tasvirlash uchun ahamiyatga molik lisoniy birlikka aylanadi. Zamonaviy tilshunoslikning kognitiv yo'nalishi ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklarning borliq hodisalariga metaforik qo'llanishi haqida so'z yuritilganda asosan konseptual metafora hamda konseptual integratsiya nazariyasidagi *blending* singari kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etadi. So'zlovchilar kishi xotirasidagi konseptual tizimni metaforik tasvirlashda antroponimik komponentli frazeologik birliklardan keng foydalanadi. Bu holat ingliz va o'zbek tillarining o'ziga xos jihatlarni ochib beradi. Bunda mazkur frazeologik birliklarda tarixiy shaxslar, mifologik va diniy obrazlar, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi qahramonlari hamda oddiy xalq vakillariga xos belgi-xususiyatlar aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdusamadov Z.N. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari: filol. fanl. falsafa dokt. (PhD) diss. — Toshkent: O'zMU, 2022. — 132 b.

Anar. Nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi A. Tojiyev. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. — 440 b.

Ashurova D., Galiyeva M. Cognitive linguistics. — Tashkent, 2018. — 160 p.

Dictionary.com. Aladdin's cave. — URL: <https://www.dictionary.com/browse/aladdins-cave> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Farlex Dictionary of Idioms. An Artful Dodger. — URL: <https://idioms.thefreedictionary.com/artful+dodger> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Farlex Dictionary of Idioms. As old as Methuselah. — URL: <https://idioms.thefreedictionary.com/old+as+Methuselah> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Farlex Dictionary of Idioms. Barmecide feast. — URL: <https://idioms.thefreedictionary.com/Barmecide+feast> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Farlex Dictionary of Idioms. Damon and Pythias. — URL: <https://idioms.thefreedictionary.com/Damon+and+Pythias> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Farlex Dictionary of Idioms. Lucullan. — URL: <https://www.thefreedictionary.com/Lucullean> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Ismoil A. Hachcha-bu hikoya. — URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-ismoil-1954/abdulhamid-ismoil-hachcha-bu-hikoya> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Kovecses Z., Szabco P. Idioms: A view from cognitive semantics // Applied Linguistics. — 1996. — № 3. — P. 326–355.

Mamadaliyeva Z. Qari qizning qismati: hikoya // Yoshlik. — 2013. — № 3(265). — B. 40–43.

Merriam-Webster. Open a Pandora's box. — URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/open%20a%20Pandora%27s%20box> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Mirmuhsin. Umid: roman. — Toshkent: Tafakkur qanoti, 2016. — 352 b.

Omazić M. Cognitive linguistic theories in phraseology // Jezikoslovlje. — 2005. — № 6(1). — P. 37–56.

Qodiriy A. Suddagi nutq. — URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-suddagi-nutq-1926/> (murojaat sanasi: 20.03.2026).

Sulton I. Asarlar. 4 jildli. 1-jild: dramaturgiya. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. — 440 b.

Yuldashev A.G. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv aspekti (ingliz va o'zbek tillari misolida): filol. fanl. falsafa dokt. (PhD) diss. — Toshkent, 2017. — 144 b.

Туарменская А.В. Когнитивные аспекты восприятия и категоризации пространственного опыта (на материале английских фразеологизмов со словами, обозначающими части тела человека): автореф. дисс. канд. филол. наук. — М., 2006. — 25 с.

Шевченко Е.В. Когнитивные аспекты фразеологических единиц, содержащих компонент «цвет» в современном английском языке: автореф. дисс. канд. филол. наук. — М., 2007. — 24 с.

Щербань О.В. Когнитивные механизмы семантической деривации в современной английской фразеологии: автореф. дисс. канд. филол. наук. — М., 2024. — 24 с.

References

Abdusamadov, Z. N. (2022). *Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari* [National and cultural features of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek languages]. O'zMU.

Anar. (2022). *Nasr* [Prose]. O'zbekiston nashriyoti.

Ashurova, D., & Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent. VneshInvestProm,

Dictionary.com. (n.d.). *Aladdin's cave*. In *Dictionary.com*. Retrieved March 20, 2026, from <https://www.dictionary.com/browse/aladdins-cave>

Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.). *An artful Dodger*. In *The Free Dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://idioms.thefreedictionary.com/artful+dodger>

Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.). *As old as Methuselah*. In *The Free Dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://idioms.thefreedictionary.com/old+as+Methuselah>

Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.). *Barmecide feast*. In *The Free Dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://idioms.thefreedictionary.com/Barmecide+feast>

Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.). *Damon and Pythias*. In *The Free Dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://idioms.thefreedictionary.com/Damon+and+Pythias>

Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.). *Lucullan*. In *The Free Dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://www.thefreedictionary.com/Lucullean>

Ismoil, A. (1954). *Hachcha-bu hikoya*. Ziyouz. Retrieved March 20, 2026, from <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-ismoil-1954/abdulhamid-ismoil-hachcha-bu-hikoya>

Kövecses, Z., & Szabó, P. (1996). Idioms: A view from cognitive semantics. *Applied Linguistics*, 17(3), 326–355.

Mamadaliyeva, Z. (2013). Qari qizning qismati: hikoya. *Yoshlik*, 3(265), 40–43.

Merriam-Webster. (n.d.). *Open a Pandora's box*. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved March 20, 2026, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/open%20a%20Pandora%27s%20box>

Mirmuhsin. (2016). *Umid* [Hope]. Tafakkur qanoti.

Omazić, M. (2005). Cognitive linguistic theories in phraseology. *Jezikoslovlje*, 6(1), 37–56.

Qodiriy, A. (1926). *Suddagi nutq*. Ziyouz. Retrieved March 20, 2026, from <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-suddagi-nutq-1926/>

Shcherban', O. V. (2024). *Kognitivnye mekhanizmy semanticheskoi derivatsii v sovremennoi angliiskoi frazeologii* [Cognitive mechanisms of semantic derivation in modern English phraseology]. Moscow.

Shevchenko, E. V. (2007). *Kognitivnye aspekty frazeologicheskikh edinits, sodержashchikh komponent "tsvet" v sovremennom angliiskom yazyke* [Cognitive aspects of phraseological units containing the component "color" in modern English]. Moscow.

Sulton, I. (1971). *Asarlar. 1-jild. Dramaturgiya* [Works. Vol. 1. Dramaturgy]. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Tuarmenskaya, A. V. (2006). *Kognitivnye aspekty vospriyatiya i kategorizatsii prostranstvennogo opyta (na materiale angliiskikh frazeologizmov so slovami, oboznachayushchimi chasti tela cheloveka)* [Cognitive aspects of perception and categorization of spatial experience on the material of English phraseological units with body-part components]. Moscow.

Yuldashev, A. G. (2017). *Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv aspekti (ingliz va o'zbek tillari misolida)* [Linguocognitive aspect of idiomatic compound words on the example of English and Uzbek languages]. Tashkent.